



XALQARO INVESTORLAR UCHUN KIRISH JARAYONLARINI SODDALASHTIRISH: KYC, HISOB OCHISH, REPATRIATSIYA VA KONVERTATSIYA MUAMMOLARI

PhD Holov Sherali Axrorboyevich

Annotatsiya. Tezisdagi O'zbekistonda xalqaro investorlar ishtirokini kengaytirishning muhim sharti sifatida investor "kirish" jarayonlarini soddalashtirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda KYC talablari, investorlarga hisob ochish amaliyoti, dividend va kapitalni repatriatsiya qilish jarayonlari hamda valyuta konvertatsiyasi bilan bog'liq protsedural muammolar investor qarorlariga ta'sir etuvchi institutsional to'siqlar sifatida yoritiladi. Shuningdek, xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan riskga asoslangan KYC (risk-based approach), masofaviy identifikatsiya va raqamli verifikatsiya, "single window" tamoyili, banklar va regulyatorlar o'rtasida axborot almashinuvi, repatriatsiya bo'yicha standartlashtirilgan hujjatlar hamda konvertatsiya jarayonlarida prognozlilikni kuchaytirish kabi yechimlar tizimli ko'rib chiqiladi. Natijada investor onboarding jarayonining tezligi, xarajati va huquqiy aniqligini oshirish orqali kapital oqimlari barqarorligini kuchaytirishga xizmat qiladigan metodik takliflar shakllantiriladi.

Kalit so'zlar: xalqaro investor, investor onboarding, KYC, riskga asoslangan yondashuv, hisob ochish, repatriatsiya, valyuta konvertatsiyasi, institutsional to'siqlar, shaffoflik, investitsiya muhiti.

Abstract. this thesis analyzes the simplification of investor "onboarding" processes as a key prerequisite for expanding the participation of international investors in Uzbekistan. The study highlights KYC requirements, account-opening practices for investors, procedures for repatriating dividends and



capital, and procedural issues related to foreign exchange conversion as institutional barriers that influence investor decisions. It also systematically reviews solutions widely applied in international practice, including risk-based KYC approaches, remote identification and digital verification, the “single window” principle, information exchange between banks and regulators, standardized documentation for repatriation, and measures to enhance predictability in currency conversion procedures. As a result, the thesis develops methodological recommendations aimed at strengthening the stability of capital inflows by improving the speed, cost-efficiency, and legal certainty of the investor onboarding process.

Keywords: international investor, investor onboarding, KYC, risk-based approach, account opening, repatriation, foreign exchange conversion, institutional barriers, transparency, investment climate.

Kirish

Globalashuv va kapitalning yuqori mobilligi sharoitida xalqaro investorlar uchun mamlakat bozoriga kirish jarayonlarining qulayligi investitsiya oqimlarini jalb qilishda hal qiluvchi omillardan biriga aylanmoqda. Investorlar qarorida nafaqat makroiqtisodiy barqarorlik, soliq rejimi yoki tarmoq rentabelligi, balki investitsiya operatsiyalarining amaliy bajarilishi bilan bog‘liq protsedural shartlar ham muhim o‘rin tutadi. Xususan, KYC (mijozni tanish) talablari, bank va brokerlik infratuzilmasida hisob ochish tartibi, dividend hamda kapitalni repatriatsiya qilish mexanizmlarining aniqligi, shuningdek valyuta konvertatsiyasi bo‘yicha tartiblarning prognozlilikligi investorlar uchun tranzaksiya xarajatlari va vaqtini belgilab beradi. Ushbu jarayonlar ortiqcha murakkablashganda yoki talablarda izchillik yetishmaganda, investorlar riskni yuqori baholaydi, investitsiya

loyihalari boshlanishi kechikadi, ayrim hollarda esa kapital boshqa bozorlar foydasiga yo‘naltiriladi.

O‘zbekistonda investitsiya muhitini yaxshilash bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar olib borilayotgan bir paytda, xalqaro investorlar uchun “kirish” jarayonlarining amaliy samaradorligi alohida metodologik yondashuvni talab etadi. Chunki onboarding jarayoni bir vaqtning o‘zida bir nechta institutlar kesishadigan soha hisoblanadi: banklar va to‘lov tizimlari, kapital bozori infratuzilmasi, regulyatorlar, valyuta nazorati hamda compliance talablari. Shu nuqtai nazardan, investor onboarding tizimini takomillashtirish faqat bitta tartibni “yengillashtirish” emas, balki risklarni boshqarish (compliance) va investorlarga qulaylik (ease of doing business) o‘rtasida muvozanatni topish, jarayonlarni standartlashtirish va raqamlashtirish, hamda qaror qabul qilishni tezlashtiradigan institutsional arxitektura yaratishni anglatadi[1].

Mazkur tezisning maqsadi O‘zbekistonda xalqaro investorlar ishtirokini kengaytirish nuqtai nazaridan KYC, hisob ochish, repatriatsiya va valyuta konvertatsiyasi bilan bog‘liq protsedural to‘siqlarni aniqlash hamda ularni kamaytirishga qaratilgan metodik takliflarni shakllantirishdan iborat. Tadqiqotda riskga asoslangan KYC yondashuvi, masofaviy identifikatsiya va raqamli verifikatsiya, “single window” tamoyili, banklar va regulyatorlar o‘rtasida ma’lumot almashinuvi, repatriatsiya hujjatlarini standartlashtirish hamda konvertatsiya jarayonida prognozlilikni kuchaytirish kabi yechimlarning amaliy qo‘llanishi baholanadi. Natijada investor onboarding jarayonining tezligi, xarajati va huquqiy aniqligini oshirish orqali kapital oqimlarini barqarorlashtirish va investitsiya muhitini institutsional jihatdan mustahkamlashga xizmat qiladigan tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Asosiy qism

Xalqaro investorlar uchun bozorga kirish jarayonlari (investor onboarding) O‘zbekistonga kapital oqimlarini jalb qilishda “birinchi real



sinov” hisoblanadi. Investor qaroriga makrobarqarorlik va rentabellikdan tashqari amaliy protseduralar ham bevosita ta’sir qiladi: KYC talablari, bank/brokerda hisob ochish, dividend va kapitalni repatriatsiya qilish hamda valyuta konvertatsiyasi bo’yicha talablar qanchalik tez, shaffof va prognoz qilinadigan bo’lsa, investitsiya loyihalarining boshlanishi shunchalik tezlashadi, tranzaksiya xarajatlari kamayadi va investorning subyektiv risk bahosi pasayadi.

2020–2025 yillardagi statistik tendensiyalar investorlar bilan ishlashning amaliy mexanizmlari muhimligini kuchaytirganini ko’rsatadi. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, asosiy kapitalga yo‘naltirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar 2020 yildagi 89,8 trln so‘mdan 2024 yilda 333,8 trln so‘mga yetgan. 2024 yilda umumiy investitsiyalar 493,7 trln so‘mni tashkil etib, 2023 yilga nisbatan 127,6 foizga teng bo‘lgan; investitsiyalarning 89,5 foizi markazlashmagan manbalar hisobidan moliyalashtirilgani qayd etiladi. Shuningdek, 2024 yilda jami xorijiy investitsiya va kreditlar 34,9 mlrd AQSh dollarini tashkil etib, shundan 26,4 mlrd dollari asosiy kapitalga yo‘naltirilgani, 2025 yil yanvar–sentyabrda esa jami xorijiy investitsiya va kreditlar 34,5 mlrd dollarga yetib, shundan 24,9 mlrd dollari asosiy kapitalga yo‘naltirilgani ko‘rsatilgan[2]. Bu raqamlar investor va kreditorlar ulushi yuqori bo‘lgan sharoitda onboarding jarayonlaridagi kechikish va noaniqlikning “narxi” oshishini anglatadi: kapitalning kelishi cho‘ziladi, loyihalar jadvali buziladi, ayrim holatlarda mablag‘ alternativ bozorlar foydasiga qayta yo‘naladi.

KYC va hisob ochish bosqichi onboardingning eng ko‘p vaqt va hujjat talab qiladigan qismidir. Global miqyosda AML/CFT standartlari kuchaygani sabab KYC tabiiy ravishda qat’iylashgan, biroq amaliyotda “riskga mos” yondashuv bo‘lmasa, hujjatlar takroriyliigi, bir xil ma’lumotni bir necha marotaba so‘rash, muddatlar bo’yicha aniqlik yo‘qligi kabi muammolar yuzaga keladi[3]. O‘zbekistonda e-KYC va masofaviy identifikatsiyani



huquqiy jihatdan mustahkamlash yo‘nalishida 2024 yil 26 apreldagi Vazirlar Mahkamasining 238-son qarori muhim asos bo‘lib, qimmatli qog‘ozlar bozorida masofadan raqamli identifikatsiya tartibini belgilaydi. Bu yangilik to‘g‘ri joriy etilganda investorlar uchun hisob ochish va tekshiruv bosqichini tezlashtirish, hujjatlar aylanishini qisqartirish imkonini beradi. Lekin real soddalashtirish uchun e-KYCni faqat texnik vosita sifatida emas, balki metodologiya sifatida ishlatish kerak: past riskli institut investorlar uchun soddalashtirilgan hujjatlar paketi, yuqori riskli holatlar uchun chuqurlashtirilgan tekshiruv; bank, broker va depozitariy darajasida minimal yagona talablarni standartlashtirish; ma’lumotlar almashinuvini kuchaytirish[4].

Repatriatsiya va valyuta konvertatsiyasi investor ishonchi uchun hal qiluvchi yo‘nalishdir, chunki investor “kirish” bilan birga “chiqish” kafolatini ham baholaydi. Shu sababli asosiy talab qoidaning mavjudligi emas, uning amaliy ijrodagi prognozlaniligidir: hujjatlar ro‘yxati bir xil bo‘lishi, ko‘rib chiqish muddatlari aniq belgilanishi, qo‘shimcha hujjat so‘rash holatlari asoslantirilishi kerak. 2020 yil sentyabridan valyuta operatsiyalari bo‘yicha yangi qoidalar kuchga kirgani haqida UNCTAD Investment Policy Monitor qayd etib, tartib-taomillarni soddalashtirish va yagona protsedura yaratish maqsadi ko‘rsatilgan[5]. Bunday yo‘nalish davom ettirilsa, konvertatsiya va repatriatsiya bo‘yicha amaliy “ishqalanish” kamayadi.

Mazkur tezis doirasida takomillashtirishning amaliy yondashuvi uchun tamoyilga tayanadi: tezlik, xarajat va huquqiy aniqlik[6]. Birinchi yo‘nalish sifatida investor uchun yagona kirish nuqtasi (single window) konsepsiyasi taklif etiladi: hujjat topshirish, tekshiruv statusini ko‘rish, talab qilinadigan qo‘shimcha hujjatlar, konvertatsiya va repatriatsiya so‘rovlarini kuzatish bitta standart jarayonga birlashtiriladi. Ikkinchi yo‘nalish riskga asoslangan KYC: past riskli investor uchun soddalashtirilgan paket va tezkor muddat, yuqori riskli holatlar uchun chuqurlashtirilgan tekshiruv; e-KYC orqali masofaviy



verifikatsiyani kengaytirish[7]. Uchinchi yo‘nalish repatriatsiya va konvertatsiyada prognozlilik: standart shakllar, minimal yagona hujjatlar ro‘yxati va xizmat ko‘rsatish muddatlari (service-level)ni amaliy monitoring bilan birga joriy etish.

Xulosa qilib aytganda, 2020–2025 davrida xorijiy investitsiya va kreditlar hajmining yuqori bo‘lishi va bozor manbalariga tayanuvchanlik kuchayishi onboarding jarayonlarini institutsional darajada takomillashtirishni dolzarb qiladi[8]. KYC, hisob ochish, repatriatsiya va konvertatsiya bosqichlaridagi protsedural to‘siqlarni qisqartirish orqali investor uchun vaqt va xarajatlar kamayadi, huquqiy aniqlik kuchayadi va natijada kapital oqimlarining barqarorligi hamda diversifikatsiyasi uchun qulay sharoit shakllanadi.

Xulosa

Mazkur tezis doirasida O‘zbekistonda xalqaro investorlar uchun bozorga kirish jarayonlarini soddalashtirish masalalari KYC, hisob ochish, repatriatsiya va valyuta konvertatsiyasi kesimida tahlil qilindi. 2020–2025 yillarda xorijiy investitsiya va kreditlar oqimining yuqori bo‘lishi hamda investitsiya manbalarida markazlashmagan resurslar ulushining ortishi investorlar bilan amaliy ishlash mexanizmlarini “asosiy institutsional omil” darajasiga olib chiqdi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, onboarding bosqichlaridagi ortiqcha murakkablik, hujjatlar takroriyligi, muddatlar bo‘yicha noaniqlik va ijrodagi tafovutlar investor xarajatini oshiradi, loyihalarning boshlanishini kechiktiradi va risk-premiya ko‘tarilishiga sabab bo‘ladi[9].

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi. Birinchidan, onboarding jarayonlarida soddalashuv faqat “talablarni kamaytirish” emas, balki compliance (AML/CFT) talablarini saqlagan holda riskga asoslangan yondashuvni to‘liq joriy etish, jarayonlarni standartlashtirish va

raqamlashtirishdir. Ikkinchidan, e-KYC va masofaviy identifikatsiya bo'yicha huquqiy asoslar mavjud bo'lishi bilan birga, real samaradorlik bank, broker va depozitariy darajasida minimal yagona hujjatlar paketi, o'zaro ma'lumot almashinuvi va qayta-qayta tekshiruvni kamaytirish orqali ta'minlanadi. Uchinchidan, repatriatsiya va konvertatsiya investor ishonchining markaziy elementi bo'lib, bu yo'nalishda eng muhim talab prognozlilikdir: hujjat shakllarining bir xilligi, ko'rib chiqish muddatlarining aniq belgilanishi, qo'shimcha hujjat so'rash holatlarining standart mezonlar asosida tushuntirilishi[10].

Amaliy jihatdan tezis investor onboardingni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi: yagona kirish nuqtasi (single window) konsepsiyasini joriy etish, riskga asoslangan KYC segmentatsiyasi (past riskli investorlar uchun soddalashtirilgan paket, yuqori riskli holatlar uchun chuqurlashtirilgan tekshiruv), repatriatsiya va konvertatsiyada standart hujjatlar hamda xizmat ko'rsatish muddatlarini (service-level) amaliy monitoring bilan qo'llash. Shu bilan birga, jarayonlarni boshqarish uchun o'lchanadigan KPilar (onboarding muddati, hujjatlar soni, qo'shimcha hujjat so'rash chastotasi, konvertatsiya/repatriatsiya so'rovlarini ko'rib chiqish muddati, shikoyatlar sabablari) joriy etilishi taklif etiladi.

Umuman olganda, xalqaro investorlar uchun kirish jarayonlarini tez, arzon va huquqiy jihatdan aniq qilish kapital oqimlarining barqarorligi va diversifikatsiyasini kuchaytiradi, investitsiya loyihalarining startini tezlashtiradi hamda O'zbekistonning xalqaro moliya bozorlaridagi ishonchlilik pozitsiyasini mustahkamlaydi. Keyingi tadqiqotlar uchun esa onboarding jarayonlarining real "vaqt-xarajat" o'lchovlarini mikro-darajada (banklar va brokerlar kesimida) yig'ish, investor tajribasi (survey) asosida "bottleneck"larni aniqlash va xalqaro benchmarklar bilan solishtirma baholash olib borish maqsadga muvofiq.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Statistik agentligi. Investments in fixed capital in the Republic of Uzbekistan (January–December 2024) (analitik material, PDF).
2. O‘zbekiston Respublikasi Statistik agentligi. Investments and construction: January–December 2024 (choraklik natijalar, PDF).
3. O‘zbekiston Respublikasi Statistik agentligi. O‘zbekistonda xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi (2024 yil yanvar–iyun) (rasmiy xabar).
4. O‘zbekiston Respublikasi Statistik agentligi. Fixed Capital Investments in the Republic of Uzbekistan (January–September 2025) (analitik material, PDF).
5. O‘zbekiston Respublikasi Statistik agentligi. Investments have increased by 2.8 times over the past 5 years (January–September 2025 bo‘yicha rasmiy xabar).
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. “Qimmatli qog‘ozlar bozorida mijozlarni masofadan turib raqamli identifikatsiya qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” VMQ №238 (26.04.2024) (lex.uz).
7. UNCTAD. Investment Policy Monitor: Uzbekistan – New rules on foreign exchange transactions (01 Sep 2020).
8. UNCTAD. Investment Policy Monitor: Uzbekistan – Adopts a comprehensive law on investment (Law № ZRU-598; 26 Jan 2020).
9. U.S. Department of State. 2022 Investment Climate Statements: Uzbekistan (investor huquqlari, transfer/repatriatsiya kafolatlari bo‘yicha sharh).
10. OECD. Roadmap for Sustainable Investment Policy Reforms in Uzbekistan: Enhancing Uzbekistan’s investment promotion and facilitation framework (2025).

